

**O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**OTAKULOVA DILDORA HAKIMBEK QIZI**

**8-11- SINIF O'QUVCHILARINING YOZISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH  
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Otakulova Dildora Hakimbek qizi**

8-11- sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmasini rivojlantirish  
metodikasini takomillashtirish ..... 3

**Otakulova Dildora Hakimbek qizi**

Совершенствование методики развития навыков письма  
учащихся 8–11 классов..... 23

**Otakulova Dildora Hakimbek qizi**

Improving the methodology for developing writing skills of 8th–11th  
Grade Students..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'yhati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 49

**O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**OTAKULOVA DILDORA HAKIMBEK QIZI**

**8-11- SINIF O'QUVCHILARINING YOZISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH  
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.Phd/Ped7118 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) tilda ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) hamda «Ziyonet» axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Abdullayeva Barno Sayfutdinovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Misirov Sohijon Abdupattayevich**  
pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

**Najmutdinova Gulnoza Baxtiyorovna**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

**Yetakchi tashkilot:** **Andijon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04.raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "\_\_\_" \_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100138, Toshkent shahri, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel: (+99871) 27682-32, fax: (+99871) 276-76-51, email: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston milliy pedagogika universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_-raqami bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel: (+99871) 27682-32, fax: (+99871) 276-76-51, email: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "\_\_\_" \_\_\_ kuni tarqatildi.

(2026-yil "\_\_\_" \_\_\_da \_\_\_-raqamli reestr bayonnomasi).

**Sh.A. Atadjanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
pedagogika fanlari doktori(DSc), dotsent

**S.X.Nazarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori(PhD), dotsent

**F.I.Ikromxonova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori(DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda hozirgi globalashuv va raqamli axborot muhitida xorijiy, xususan, ingliz tilini o'rgatishning sifatini oshirish, uni zamonaviy didaktik talablarga moslashtirish, ayniqsa, o'quvchilarning yozish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish davlat miqyosidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Chet tilni o'rganish jarayonida yozma nutq-o'quvchining mustaqil fikrini mantiqiy, grammatik va stilistik jihatdan to'g'ri, erkin ifodalash ko'nikmasini shakllantiradigan asosiy ko'nikmalardan biridir. Til ko'nikmalari ichida, bugungi kunda axborot almashinuvining asosiy vositasi bo'lgan yozuv malakasini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar Buyuk Britaniya, AQSh, Chexiya, Avstraliya, Praga, Ispaniya va Rossiyada olib borilgan bo'lsa, yozishni o'rgatishda TBLT (vazifaga asoslangan til o'qitish), jarayonga, janrga asoslangan yondashuv, hamkorlikda o'qitish, skaffolding, raqamli vositalardan samarali foydalanish yuzasidan izlanish va tajribalar AQSh, Ispaniya, Yangi Zelandiya, Avstraliya, Xitoy va Yaponiya singari mamlakatlarda dolzarblik kasb etadi.<sup>1</sup>

Dunyo ilm-fanida chet tilda yozma muloqot olib borish qobiliyati, birinchi navbatda, xalqaro hamkorlikning kengayishi, maktab bitiruvchilari uchun chet tilni bilish darajasini aniqlovchi milliy va xalqaro testlarga tayyorgarlik ko'rish, chet elda o'qish uchun grant g'olibi bo'lish, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, oliy o'quv yurtlari talabalari va bitiruvchilari uchun xorijda amaliyot o'tash, xalqaro almashinuv dasturlarida ishtirok etish imkoniyatining tug'ilishi va talabalarning akademik mobilligining rivojlanishi tufayli keng talabga aylandi. Shuningdek, akademik, professional, ilmiy, ijtimoiy sohalarda ma'lumot almashinuvi hajmi va sur'atlarining o'sishi, zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi rasmiy aloqa sohasida yozma muloqotni birinchi o'ringa olib chiqdi va norasmiy aloqada uning rolini sezilarli darajada kuchaytirdi. Bundan tashqari, zamonaviy dunyoda ingliz tilining rolini kuchaytirish uni og'zaki va yozma aloqa vositasi sifatida yuqori darajadagi malakalardan foydalanish bilan izohlanadi.

Mamlakatimizda ingliz tilini chuqur o'qitishga katta e'tibor qaratilib, ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirishda bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlarni tayyorlash, sohaga malakali pedagoglarni jalb qilish va aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish"<sup>2</sup> kabi vazifalar belgilangan. Bu esa maktab o'quvchilarining chet tilda turli maqsadlarda

<sup>1</sup> IN FOCUS Universities and Agenda 2030: Engaging with the SDGs / IAU 2019 CONFERENCE / Transforming Higher Education for the Future. Vol.24 №1 \* IAU HORIZONS. [https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau\\_horizons\\_vol.24.1\\_en\\_light\\_.pdf](https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau_horizons_vol.24.1_en_light_.pdf)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. <https://lex.uz/docs/-5426736>

yozma ishlar orqali o'zaro aloqa qila olish qobiliyati sifatida yozma muloqotni o'rgatish hamda ushbu aloqa samaradorligi uchun mas'ul bo'lgan yozish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish kabi vazifalarni belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son, "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60- son, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020- yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son, "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son, "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son, "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son, "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son, "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", gi qaror farmonlar, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining. 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda xorijiy tilni o'qitish masalalari G.X.Bakieva, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, G.T.Mahkamova T.K.Sattarov, X.D.Paluanova, M.Djusupov, D.R.Djumanova, D.U.Xoshimova, D.A.Tadjibayeva F.Sh.Alimov, X.A.Mamatkulov, K.Sh.Muradkasimova, B.R.Samatova, X.I.Urazbayev, X.A.Axmadjanov, G.A.Inomova kabi tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan.

Respublikamizda chet tillarni o'rganish tizimida Umumevropa kompetensiyalarini chet tillarni o'qitish jarayonida samarali qo'llashning metodologik asoslari F.M.Rashidova, J.Jalolov, G.Maxkamova, Sh.Ashurova, A.Irisqulov, B.G.Kulmatov va M.X.Gulyamovalarning ilmiy tadqiqotlarida ishlab chiqilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida chet til o'qitishda o'quvchilarning yozish ko'nikmasini rivojlantirish, yozma nutqiy munosabatlar va kommunikativ aloqalarni shakllantirish hamda matnning tarkibiy komponentlarini o'zlashtirish I.Zimnyaya, I.Zhechkova, L.Loseva, M.Lvovlar; lingvodidaktika nazariyasining rivojlanishi M.Isaev, T.Jerebilo, O.D.Kuznetsovalar, o'quvchilarning nutqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha N.Bagramova, N.Galskova, O.B.Sirotninalarning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Xorijlik olimlardan yozish ko'nikmasini rivojlantirish masalalarida D.Brown, W.Grabe, K.Hyland, T.Shanahan, A.Cumming, A.Starko, L.Bachman, J.Hedgcock, J.o'Keefelar tadqiqotlar olib borgan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** 8-11- sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari**

o'quvchilarning yozish ko'nikmasini rivojlantirishning lingvodidaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

o'quvchilarning yozish ko'nikmasini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

o'quvchilarning yozish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

o'quvchilarning yozish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi samaradorligini aniqlashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida 8-11-sinf o'quvchilarining chet tilda yozish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni bo'lib, Sirdaryo, Toshkent, Jizzax viloyatlaridagi 9ta maktablarning jami 1281 nafar o'quvchilari ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** 8-11-sinf o'quvchilarining chet tilda yozish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida kuzatish, so'rovnoma, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, savol-javob, suhbat, pedagogik tajriba-sinov, matematik - statistik tahlil, dalillash, taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

8-11-sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari yozishga emotsional tayyorlik va nutqiy stimulning faollashuvi

yo'zma diskurs barqarorligi hamda yo'zma ifoda aniqligining shakllanishi assotsiativ bog'lanishlar yordamida yo'zma fikrni faollashtirish ichki yo'zma ishtirokni rag'batlantirishni ta'minlash asosida aniqlashtirilgan;

8-11-sinf o'quvchilarining yo'zish ko'nikmasini rivojlantirish modeli yo'zish jarayonida o'zini boshqarish va yo'zma fikrni monitoring qilish matn kompozitsion izchilligi hamda janrga xos yo'zma tuzilmaning barqaror namoyon bo'lishida yo'zma faoliyatni rejalashtirish va ifodalash konvergent qayta tuzish asosida takomillashtirilgan;

8-11-sinf o'quvchilarining yo'zish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi yo'zish jarayonining ongli boshqaruvi, yo'zma nutqiy moslashuvchanlik matn semantik yaxlitligi hamda mazmuniy izchillikning ta'minlanishi ichki nutqdan yo'zma nutqqa o'tish jarayonini faollashtirish orqali takomillashtirilgan;

8-11-sinf o'quvchilarining yo'zish ko'nikmasini rivojlantirish samaradorligi irodaviy yozuv barqarorligi va faoliyatda o'zini nazorat qilishning kuchayishi hisobiga nutqda aniqlik va moslashuvchanlikning orttirilishi hamda yo'zma nutq sifat ko'rsatkichlarining barqaror o'sishi feedback aloqani joriy qilish orqali oshirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning yo'zish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan;

o'quvchilarning yo'zish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

talabalarning yo'zish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha "Reading and Writing" (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 2-iyuldagi 130-O-sonli buyrug'iga asosan o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi) nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan;

o'quvchilar yo'zish ko'nikmasining rivojlanganligini baholash mezonlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** o'quvchilarning yo'zish ko'nikmasini rivojlantirishga oid ma'lumotlar respublika va xorijiy olimlar tajribalariga asoslangani hamda rasmiy manbalardan olinganligi va yo'zish ko'nikmasini rivojlantirish modeli takomillashtirilganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistika metodlari vositasida aniqlanganligi, xulosa, takliflar berilib, tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiyada ilgari surilgan nazariy qarashlar, lingvodidaktik yondashuvlar hamda metodik tavsiyalar asosida o'quvchilarning yo'zish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir ilmiy qarashlar tizimli ravishda boyitildi va chuqur ilmiy tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida yo'zma nutqni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari zamonaviy til o'qitish konsepsiyalari, kommunikativ yondashuv, jarayonli yo'zish (process writing) hamda vazifaga asoslangan ta'lim (Task-Based Language Teaching) tamoyillari asosida izohlanadi.

O'quvchilarning yozish ko'nikmasini rivojlantirish jarayonida lingvodidaktik omillarning o'рни, yozma nutqning tarkibiy komponentlari (mazmun, mantiqiylik, grammatik to'g'rilik, leksik boylik va stilistik moslik) ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shuningdek, o'quvchilarda yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishda bosqichma-bosqich rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelning samaradorligi 8-sinflarda elektron xatlar (email writing), 9-sinflarda mantiqiy tuzilgan paragraf yozish, 10-sinflarda matnni qisqacha bayon qilish (summary writing), 11-sinflarda esa argumentativ va muammoli esse yozish kabi yozma ish turlari orqali yozish ko'nikmasini izchil rivojlantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot doirasida o'quvchilarning yozish ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyalari ham ilmiy jihatdan asoslab berildi. Xususan, skaffoldlash (scaffolding), hamkorlikda yozish (collaborative writing), raqamli texnologiyalar asosida yozish topshiriqlarini tashkil etish kabi metodik yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilindi. Misol sifatida, o'quvchilarga dastlab matn tuzilmasi bo'yicha namunaviy qoliqlar (writing frames) berish, keyinchalik esa mustaqil ravishda paragraf va esse yozishga yo'naltirish orqali ularning yozma nutq kompetensiyasi bosqichma-bosqich rivojlanishi ilmiy tajriba asosida isbotlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'quvchilarning yozish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

8-11-sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari yozishga emotsional tayyorlik va nutqiy stimulning faollashuvi yozma diskurs barqarorligi hamda yozma ifoda aniqligining shakllanishi assotsiativ bog'lanishlar yordamida yozma fikrni faollashtirish ichki yozma ishtirokni rag'batlantirishni ta'minlash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalardan "Reading and Writing" (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 29-iyuldagi 22-01-355/22-sonli ma'lumotnomasi), nomli o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan. Natijada o'quvchilarning yozish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash imkoni yaratilgan;

8-11-sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmasini rivojlantirish modeli yozish jarayonida o'zini boshqarish va yozma fikrni monitoring qilish matn kompozitsion izchilligi hamda janrga xos yozma tuzilmaning barqaror namoyon bo'lishida yozma faoliyatni rejalashtirish va ifodalash konvergent qayta tuzish asosida takomillashtirishga oid takliflardan "Reading and Writing" (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 29-iyuldagi 22-01-355/22-sonli ma'lumotnomasi), nomli o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan. Natijada o'quvchilarning yozish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning didaktik ta'minotini tahlil qilish imkoni kengaytirilgan;

8-11-sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi yozish jarayonining ongli boshqaruvi, yozma nutqiy moslashuvchanlik matn

semantik yaxlitligi hamda mazmuniy izchillikning ta'minlanishi ichki nutqdan yozma nutqqa o'tish jarayonini faollashtirish orqali takomillashtirishga oid tavsiyalardan "Reading and Writing" (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 29-iyuldagi 22-01-355/22-sonli ma'lumotnomasi), nomli o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan. Natijada o'quvchilarning yozish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modelining samaradorligi oshgan;

8-11-sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmasini rivojlantirish samaradorligi irodaviy yozuv barqarorligi va faoliyatda o'zini nazorat qilishning kuchayishi hisobiga nutqda aniqlik va moslashuvchanlikning orttirilishi hamda yozma nutq sifat ko'rsatkichlarining barqaror o'sishi feedback aloqani joriy qilish orqali takomillashtirishga oid takliflardan "Reading and Writing" (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 29-iyuldagi 22-01-355/22-sonli ma'lumotnomasi), nomli o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan. Natijada o'quvchilarning yozish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati oshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 10 ta ish, shu bilan birga 1 ta o'quv qo'llanma va O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola 4 tasi mahalliy, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etildi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 155 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida "8-11-sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot ob'yekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**8-11-sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida 8-11-sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmasini rivojlantirishdagi muammolar lingvodidaktik jihatdan o'rganilgan, o'qib tushunishning yozish ko'nikmasini rivojlantirishdagi roli, va pedagogik shart-sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Muammo	Yechim
<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/> shaxsiy motivatsiyaning pastligi	<input type="checkbox"/> shaxsga yo'naltirilgan
<input type="checkbox"/> fikrlashning tarqoq bo'lishi	<input type="checkbox"/> vazifa asosidagi
<input type="checkbox"/> grammatik xatolar ustuvorligi	<input type="checkbox"/> janr asosidagi
<input type="checkbox"/> yozuvning ijtimoiy va janr me'yorlariga mos emasligi	<input type="checkbox"/> kollaborativ

### 1-rasm Yozish ko'nikmasini rivojlantirishdagi muammolar va yechimlar

Yozish ko'nikmasi chet tilni o'rgatishda o'ziga xos o'ringa ega, chunki uni bilish tinglab tushunish, o'qish va gapirish kabi til ko'nikmalarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Yozuvni o'rgatishda qo'llaniladigan samarali yondashuvlar multimodal topshiriqlar, o'zaro hamkorlikda tahrirlash, refleksiv va hamkorlikda yozish metodlari bayon etilgan. O'qituvchilarning metodik kompetensiyasi va interaktiv yondashuvlar o'quvchilarning matn tuzish, bog'liqlikni saqlash va fikrni ifoda etishdagi faolligini oshirishga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqotda yozishni o'qish ko'nikmasi bilan integrtasiyalashgan holda o'rgatish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. O'qish ko'nikmasi orqali o'quvchilar real til modellarini o'rganadilar, bu esa yozuvda qo'llaniladigan struktura, uslub va leksik birliklarni puxta o'zlashtirishlariga yordam beradi. Yozish va o'qish ko'nikmalarining birgalikda rivojlanishi muloqotga tayyorlik va nutqiy kompetensiyaning oshishiga olib keladi. Chet (ingliz) tilida o'qish kompetensiyasini o'rgatish nutq faoliyatining boshqa turlarini o'zlashtirish uchun mustahkam asos yaratadi. Uni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish orqali belgilangan miqdorda har kuni 20 daqiqadan o'qishni, o'qish ravonligini (Fluency) rivojlantirishni, lug'at boyligini, lingvistik ravonlikni, tanqidiy fikrlashni hamda tushunish ko'nikmalarini oshirishga yordam bergani uchun so'z boyligini egallashni rivojlantirishni tavsiya qilamiz. Har bir o'quvchining ehtiyoji va qiziqishini hisobga olgan holda o'qish ko'nikmasini o'rgatishdagi strategiyalarni tanlash esa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabidir.

Ko'plab tilshunos olimlar o'z ilmiy qarashlarida o'qish va yozishning uzviy bog'liqligi borasida integrativ, kommunikativ va kognitiv yondashuvlar bir-birini to'ldirishini va maktab kontekstida bu ikki ko'nikmani birgalikda rivojlantirish zarurligini ilmiy asoslanganlar.

Pedagogik shart-sharoit bu o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarning

kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tashkiliy, metodik, psixologik, didaktik va kommunikativ omillar majmuidir. Bu tushuncha XX asr o'rtalaridan boshlab pedagogik nazariyada keng qo'llanila boshlandi. V.V. Kraevskiy bu atamani o'quv muhiti, metodlar tizimi, o'qituvchining faoliyat strategiyasi va o'quvchining individual xususiyatlari bilan bog'laydi. S. Krashen tomonidan ilgari surilgan "Comprehensible Input Hypothesis" nazariyasiga ko'ra, til o'rganishning muvaffaqiyati, avvalo, o'quvchiga uning til bilish darajasiga mos tushunarli til materialini taqdim etilishiga bog'liq. Bu shart-sharoit chet tilni o'rganuvchi shaxsning psixolingvistik faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Krashen "i+1" formulasi orqali o'quvchining mavjud bilimiga nisbatan biroz murakkabroq material taqdim etilishini taklif qiladi. Bizningcha, 8-11-sinf o'quvchilari uchun eng samarali yozish topshiriqlari ularning mavjud bilimlarini faollashtiruvchi, leksik-grammatik strukturalarni tushunarli tarzda mustahkamlovchi shaklda bo'lishi kerak.

Pedagogik shart-sharoitlar tizimli tashkil etilsa, yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan didaktik dasturlar muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Shu asosda yozuv orqali tanqidiy fikrlash, madaniyatlararo muloqot, kognitiv faollik va kommunikativ kompetensiyalar shakllanadi. Yozma nutqni rivojlantirish o'quv jarayonida qat'iy rejalashtirilgan, metodik jihatdan puxta tashkil etilgan pedagogik sharoitlarni talab qiladi.

Quyida bu shart-sharoitlar bo'yicha yetakchi olimlar fikrlari asosida tizimli tavsif beriladi: M. Gulyamova ta'kidlaydi: "Chet tillarni o'qitish metodikasida ko'zda tutiladigan asosiy maqsad xorijiy til o'rganuvchilarining nutqini o'stirish, o'rganayotgan tilida erkin gapirish malakasini hosil qilishdir. Aynan shu holat til ta'limiga kommunikativ yondashuvning joriy etilishiga olib keldi". M. Ismoilova yozish ko'nikmasini rivojlantirishda individual yondashuv, differensial mashg'ulotlar va shaxsga yo'naltirilgan metodlarni pedagogik muhitda shakllantirish muhimligini qayd etadi. Z. Sobirova yozish jarayonida kommunikativ topshiriqlar, vizual va multimodal materiallardan foydalanishni pedagogik sharoit sifatida ko'rsatadi. E. Passov yozish ko'nikmasini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan, kommunikativ metodlar asosida tuzilgan til muhiti muhim deb hisoblaydi. T. D'yakova yozishning kognitiv-kommunikativ aspektlarini o'quvchilarning tilni faol o'zlashtirishidagi muhim shart deya e'tirof etadi. L.Shcherba o'z tadqiqotlarida yozma nutqni o'rgatishda fonetik, leksik va grammatik materiallar birligiga asoslangan yondashuvni taklif etadi. I.Vereshchagin tilni madaniyat kontekstida o'rganish yozuvni madaniy aspektlarda ifodalashga yo'naltirilgan o'quv muhiti bilan bog'liq bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. M.Lyakhovitskiy yozish ko'nikmasini rivojlantirishda integrativ yondashuv – tinglab tushunish, o'qish va yozuvni uyg'un o'rgatish muhimligini asoslaydi. O. Leontovich interfaol o'qitish texnologiyalari va loyiha asosidagi yondashuvlar yozma nutqni rivojlantirishdagi samarali shart deb hisoblanadi. S. Krashen o'zining "Input Hypothesis" konsepsiyasida yozuvni o'rgatishda tushunarli kirish materialini (comprehensible input) mavjud bo'lmasdan, til o'rganish amalga oshmasligini

ta'kidlaydi.

L.Vygotsky "yaqin rivojlanish zonasi" orqali o'quvchiga ko'mak berish va yozma nutqni o'zlashtirishni individual imkoniyatlar asosida shakllantirish lozimligini aytadi. J.Harmer yozma nutqni o'rgatishda motivatsion muhit, o'quvchi ehtiyojlarini hisobga olish, real kontekstda yozishni tashkil etishni pedagogik sharoit deb hisoblaydi. D.Nunan jarayonli yondashuvga urg'u berib, yozish faoliyatining bosqichma-bosqich (drafting, editing, publishing) tashkil qilinishi muhim pedagogik talab ekanini ta'kidlaydi. P. Nation lug'at boyligini oshirish, akademik yozuvni o'rgatish uchun so'z boyligini sistematik o'rgatish zarurligini aytadi. T.Silva EFL o'quvchilariga yozish ko'nikmasini o'rgatishda kontekstual va madaniy jihatlarni inobatga olgan holda, reflektiv yozuv va peer-review metodlarini ta'limga joriy etish kerakligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning **"8-11-sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari"** deb nomlangan ikkinchi bobi o'quvchilarning yozma nutq ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyalari, modeli hamda metodikasini yoritishga bag'ishlangan.

Mazkur bobda yozish ko'nikmasini samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy komponentlar -shaxsiylashtirilgan topshiriqlar, metakognitiv tahlil, individual yondashuv hamda yozish jarayonini reflektiv baholash tizimi asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Find Someone Who, True-False, Four Corners, Stand up-Sit down, Jigsaw Reading, Think-Pair-Share, P-Q-P Feedback, Around the Clock kabi interaktiv metodlar yozish ko'nikmasini rivojlantirish jarayoniga moslashtirilib qo'llanildi.

1-jadval.


### 8-11-Sinflarda yozma topshiriqlar uchun mashqlar tizimi

Sinf	Yozish turi	Mashq nomi	Faoliyat tavsifi	Qo'llaniladigan metod
8-sinf	Email writing	Find Someone Who	O'quvchilar sinf bo'ylab yurib ma'lumot to'playdi va shu asosda do'stiga email yozadi	Interactive learning
8-sinf	Email writing	Think-Pair-Share	O'quvchilar avval individual fikr yozadi, keyin juftlikda muhokama qiladi va email tuzadi	Collaborative learning
8-sinf	Email writing	Stand up-Sit down	Savollarga javob berish orqali email uchun g'oyalar to'planadi	Brainstorming
9-sinf	Paragraph	True-False	Matn asosida to'g'ri	Critical

	writing	activity	yoki noto'g'ri fikrlarni aniqlab paragraf yozish	thinking
9-sinf	Paragraph writing	Four Corners	O'quvchilar turli fikrlarni tanlab o'z pozitsiyasi asosida paragraf yozadi	Discussion method
9-sinf	Paragraph writing	Think–Pair–Share	O'quvchilar fikr almashib paragraf tuzadi	Process writing
10-sinf	Story writing	Jigsaw Reading	Hikoya qismlarga bo'linadi, o'quvchilar uni birlashtirib yangi hikoya yozadi	Cooperative learning
10-sinf	Story writing	Around the Clock	O'quvchilar turli vaqt nuqtalariga asoslanib hikoya davom ettiradi	Creative writing
10-sinf	Story writing	Picture-based story	Rasm asosida hikoya yozish	Visual learning
11-sinf	Essay writing	P-Q-P Feedback	O'quvchilar bir-birining esseyini baholab fikr bildiradi	Peer assessment
11-sinf	Essay writing	Four Corners debate	Turli fikrlarni himoya qilish asosida argumentativ esse yoziladi	Debate method
11-sinf	Essay writing	Think–Pair–Share	O'quvchilar muhokama asosida esse yozadi	Process writing

Mazkur metodlar o'quvchilarni faol o'quv jarayoniga jalb etish, fikr almashish va g'oyalarni yozma shaklda ifodalash imkonini berib, ularning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda samarali metodik vosita sifatida xizmat qiladi.

TBLT pedagogik texnologiyasi xorijiy tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ularni o'z o'qish jarayoni uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga undaydi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etib, o'quvchilarda o'zlarini faol o'rganuvchi subyekt sifatida anglash, mustaqil fikrlash va o'quv faoliyatini ongli ravishda boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.



2-rasm. TBLT asosida mashqlar tizimi

Mazkur jarayonda mashqlar tizimidan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Mashqlar tizimi haqida G. Palmer, I.A. Gruzinskaya, I.V. Raxmanov, Ye.I. Passov, M.S. Ilin, A.A.Mirolubov, E.P.Shubin, I.D.Salitra, V.L.Salkin, A.D.Klimentinko va V.A.Buxbinder kabi olimlar izlanishlar olib borib, ular tomonidan berilgan mashqlar tizimi PPP (Presentation, Practice and Production)ni ifodalaydi.

Biz tadqiqotimiz davomida o'rganib borayotgan TBLT pedagogik texnologiyasi tamoyillariga yuqoridagi mashqlar tizimi mos kelmasligini e'tiborga olgan holda TBLT pedagogik texnologiyasini o'rganib tadqiqotlar olib borgan olimlar tomonidan berilgan vazifa turlarini ko'rib chiqdik.

Rod Ellis vazifalarni quyidagicha tasniflaydi:  
 ma'lumot olishga asoslangan (input based);  
 ma'lumot berishga asoslangan (output based).


Biz Rod Ellis tomonidan taqdim etilgan vazifa turlaridan foydalanib va Djeyn Villis tomonidan ishlab chiqilgan vazifaga asoslangan til o'qitish modelini hisobga olgan holda quyidagi mashqlar tizimini taklif etamiz (1.1-rasmga qarang):

retseptiv (ma'lumot olishga asoslangan);  
 produktiv (ma'lumot berishga asoslangan);  
 refleksiv (mulohaza yuritishga asoslangan);  
 ijodiy (yangi kutilmagan vaziyatlarda bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llash).

**MAQSADLI BLOK**

**Ijtimoiy buyurtma:** 8-11-sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmasini rivojlantirishga qo'yiladigan malaka talablar.

**Maqsad:** 8-11-sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.



1.3-rasm. 8-11-sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmasini rivojlantirish modeli

Yozish ko'nikmasi til o'rgatishda eng murakkab va talabchan

ko'nikmalardan biri hisoblanadi. Chunki yozuv jarayonida o'quvchilar bir vaqtning o'zida matnni tuzishni, g'oya va grammatikani uyg'unlashtirishni hamda imlo va tinish belgilariga e'tibor berishni talab qiladi. Shu bois, yozishni o'rgatish samaradorligini oshirish uchun metodologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Task-Based Language Teaching (TBLT) – bu til o'rgatishda ma'noli vazifalarga asoslangan texnologiya bo'lib, unda grammatika mashqlaridan ko'ra haqiqiy muloqot vazifalari ustuvor ahamiyatga ega. Vazifaviy yondashuvda dars markazida o'quvchilarning aktiv ishtiroki va mazmunli yozma vazifalar turadi; masalan, ularni kundalik hayotdan olingan aniq topshiriqlar (xat yozish, ma'lumot to'plash, referat tayyorlash) orqali tilni qo'llashga jalb qilishadi.

Yozish ko'nikmasi til o'rgatishda eng murakkab va talabchan ko'nikmalardan biri hisoblanadi. Chunki yozuv jarayonida o'quvchilar bir vaqtning o'zida matnni tuzishni, g'oya va grammatikani uyg'unlashtirishni hamda imlo va tinish belgilariga e'tibor berishni talab qiladi. Shu bois, yozishni o'rgatish samaradorligini oshirish uchun metodologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Task-Based Language Teaching (TBLT) – bu til o'rgatishda ma'noli vazifalarga asoslangan texnologiya bo'lib, unda grammatika mashqlaridan ko'ra haqiqiy muloqot vazifalari ustuvor ahamiyatga ega. Vazifaviy yondashuvda dars markazida o'quvchilarning aktiv ishtiroki va mazmunli yozma vazifalar turadi; masalan, ularni kundalik hayotdan olingan aniq topshiriqlar (xat yozish, ma'lumot to'plash, referat tayyorlash) orqali tilni qo'llashga jalb qilishadi.

Yozish ko'nikmasini o'qitish jarayoni murakkab kognitiv, til va psixologik faoliyatni o'z ichiga olgan uchun, uni samarali o'rgatish maqsadida oldindan loyihalangan, ilmiy asosga ega yozish ko'nikmasini rivojlantirish modeli zarur bo'ladi. Modellashtirish - bu yozma nutqni o'rgatishda o'quvchilarning yosh va til darajasini hisobga olgan holda, yondashuvlar (vazifaga asoslangan yondashuv, jarayonga asoslangan yondashuv, janrga asoslangan yondashuv), texnologiyalar (ICT, interaktiv vositalar), shart-sharoitlar (psixologik, metodik, texnik) asosida maxsus darslar tizimini yaratish va amaliyotga tatbiq qilishdir.

O'quvchilarning yozish ko'nikmasini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishda modelning shaxsiy-faoliyatga oid komponentini loyihalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu komponent o'quvchilarning yozma nutqqa nisbatan ichki motivatsiyasini, ijodiy fikrlashini hamda mustaqil yozish strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jarayonda o'quvchilarning ingliz tilidagi leksik, grammatik va janrga oid yozuv kompetensiyalarini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Bunda Process writing, Task-Based Language Teaching (TBLT) va Genre-based yondashuvlari asosida matn janrlarini o'rgatish va til resurslaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida maqsadga yo'naltirilgan didaktik hamda kommunikativ munosabatlarni

yo'lga qo'yish yozish jarayonini hamkorlikda tashkil etish va baholash mezonlarini birgalikda tushunishga imkon yaratadi.

Dissertatsiyaning "8-11-sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish texnologiyalari bo'yicha tariba-sinov ishlari" deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot ishini olib borishda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari bosqichlari, olingan natijalar va ularning statistik tahlili bayon etilgan. Pedagogik tajriba-sinov ishimizning maqsadi 8-11-sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini taklif qilinayotgan mashqlar tizimi yordamida takomillashtirishdan iborat.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining ta'kidlovchi bosqichi 2022–2023-o'quv yili, shakllantiruvchi bosqichi 2023-2024-o'quv yili hamda yakuniy bosqich 2024-2025- o'quv yillarida Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi 10-13-14, Jizzax viloyati Jizzax shahridagi 1-3-22, Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi 2-8-9-maktablarda olib borilgan bo'lib, jami 1281 nafar o'quvchilar jalb etildi. Tadqiqot yuzasidan tajriba-sinov ishlari 3 bosqichda ishlab chiqilgan metodik tizim, turli metod, shakl va vositalar asosida tashkil qilindi va o'tkazildi. Ta'lim muassasalari hududlar kesimida tanlab olinib, o'quvchilar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Ushbu taqsimot quyidagi jadvalda keltirildi (1-jadvalga qarang):

1.2-jadval

**Tajriba-sinov maydonlari ishtirokchilari soni**

Tajriba-sinov o'tkazilgan xududiy maktablar	Sinflar	Tajriba guruhlari	Nazorat guruhlari	Jami
Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi	8-sinf	57	54	111
	9-sinf	53	55	108
	10-sinf	52	51	103
	11-sinf	54	55	109
Jizzax viloyati Jizzax shahridagi	8-sinf	55	54	109
	9-sinf	54	53	107
	10-sinf	54	53	107
	11-sinf	52	53	105
Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi	8-sinf	52	53	105
	9-sinf	53	54	107
	10-sinf	54	53	107
	11-sinf	51	52	103
Jami	8-sinf	164	161	325
	9-sinf	160	162	322
	10-sinf	160	157	317
	11-sinf	157	160	317

Birinchi-izlanuvchi-ta'kidlovchi bosqichda yozish ko'nikmasini xorijiy til

kontekstida o'qitilishini hamda ushbu fanga doir pedagogik, o'quv-metodik adabiyotlar, ilmiy-tadqiqot ishlari o'rganilib tahlil qilindi. Tadqiqotning izlanuvchi bosqichida o'quvchilar uchun so'rovnoma ishlab chiqildi. So'rovnoma tajriba va nazorat guruhi o'quvchilari o'rtasida o'tkazildi. Tadqiqotimizning ushbu bosqichida o'quvchilarda yozish ko'nikmasini o'zlashtirishga nisbatan motivatsiyasi mavjudligini ham aniqlashga harakat qildik.

Tadqiqotning ikkinchi - shakllantiruvchi bosqichida o'quvchilarning yozish ko'nikmasini rivojlantirishda o'qib tushunishning amaliyotda qay darajada ekani, tilning o'rgatilish tamoyillari, omillarining tarkibiy qismlari va unga qo'yilgan didaktik talablar o'rganildi.

